

Rahimov Humoyun Otanazar o‘g‘li
QDU Davlat boshqaruvi huquqi
yo‘nalishi magistranti

DAVLAT HOKIMIYATI TARMOQLARI O‘RTASIDA
MUVOZANATNI TA‘MINLASHNING HUQUQIY MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISHNING DAVLAT BOSHQARUVI
FAOLIYATIDA O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat hokimiyati tarmoqlari o‘rtasida muvozanatni ta‘minlashning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishning davlat boshqaruvi faoliyatida o‘ziga xos jihatlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: davlat, hokimiyat, boshqaruv, muvozanat, huquqiy mexanizm, davlat boshqaruvi faoliyati.

SPECIFICS IN THE ACTIVITIES OF PUBLIC ADMINISTRATION
OF IMPROVING LEGAL MECHANISMS FOR ENSURING BALANCE
BETWEEN BRANCHES OF STATE POWER

Annotation: This article covers specific aspects in the activities of Public Administration of improving the legal mechanisms for ensuring balance between branches of state power.

Keywords: state, power, management, balance, legal mechanism, activities of Public Administration.

Har qanday davlat hokimiyatining tarmoqlarini muvozanatini ta‘minlashning birdan bir asosi qonun ustuvor bo‘lgan holatda ta‘minlanishi barchamizga ayon.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev o‘zining 2017-yil 22-dekabr kungi Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida “Hokimiyatning vakillik organlari va ijro hokimiyati idoralari o‘rtasida yaqin hamkorlikni ta‘minlaydigan usul va uslublarni takomillashtirib, o‘ta markazlashgan

boshqaruvdan bosqichma-bosqich voz kechish lozim” degan fikrlarini alohida qayd etish joiz.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 11-moddasida O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi — hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi prinsipiga asoslanishi belgilab qo‘yilganligidan kelib chiqib, davlat hokimiyati bo‘linishi prinsipining muhim tarkibiy qismi - hokimiyat tarmoqlari o‘rtasidagi o‘zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati tizimidir. Qayd etish joizki, “o‘zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati” tizimining hokimiyatlar bo‘linishida tutgan o‘rni va roli an’anaviy ravishda huquqshunos, tarixchi, siyosatshunos va boshqa sohadagi mutaxassislarning e’tiborini jalb qilib kelgan. Deyarli barcha demokratik davlatlar tomonidan asos sifatida qabul qilingan ushbu tizim nafaqat hokimiyat tarmoqlarining mustaqilligi va o‘zaro hamkorligini, balki ular o‘rtasida o‘zaro tiyib turish va o‘zaro nazorat jarayonini konstitutsiya va qonunlarda belgilangan doirada amalga oshirishni ta’minlaydi.

Qonun chiqaruvchi hokimiyatning maqsad, vazifalari va funksiyalari. Qonun chiqaruvchi hokimiyatning maqsadi bevosita davlat hokimiyatining bo‘linish prinsipining maqsadi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, fikrimizcha, qonun chiqaruvchi hokimiyatning asosiy maqsadi xalq hokimiyatchiligini ta’minlash, qonunlar, davlat byudjeti va boshqa davlat ahamiyatiga molik dasturlarni kabul kilish, hukumat faoliyatini nazorat qilishdan iboratdir. Qonun chiqaruvchi hokimiyatning vazifa va funksiyalari belgilangan normalar bir-biriga yaqin bo‘lsa-da, mazmun jihatdan bir-biridan tubdan farq kiladi. Adabiyotlarda qonun chiqaruvchi hokimiyat bo‘lmish parlamentning asosiy vazifasi sifatida qonun chiqarish ko‘rsatilgan. Bizningcha ham ushbu fikr to‘g‘ri bo‘lib, bunda qonun chiqaruvchi hokimiyat birinchi navbatda jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni qonunlar qabul qilish yo‘li bilan tartibga solishi lozim.

Ijro etuvchi hokimiyat hokimiyatlar bo‘linishiga asoslangan davlat hokimiyatining mustaqil tarmog‘i bo‘lib, u hozirgi zamon mamlakatlari davlat boshqaruvida muhim amaliy kasb etadi. Zero, davlat hokimiyati boshqa tarmoqlari hujjatlarining ijrosi aynan ushbu tarmoq zimmasiga yuklangan.

Xorijiy davlatlar konstitutsiyalaridagi ijro etuvchi hokimiyat bilan bog‘lik normalar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, aksariyat davlatlarda ijro etuvchi hokimiyat tushunchasi o‘rniga hukumat tushunchasi qo‘llanilgan. Bunda qayd etish joizki, xorijiy davlatlar konstitutsiyaviy huquq nazariyasida “hukumat” atamasi turli mazmunlarda talqin etiladi. Ayniqsa, yuridik nuqtai nazardan ushbu atama turlicha ifodalanadi. O‘z navbatida, hukumat tushunchasining eng keng tarqalgan ta’rifiga ko‘ra, hukumat - bu mamlakatni boshqarayotgan organlar va institutlar majmuidir. Bunda mazkur ta’rifda parlament xam boshkaruvning alohida elementi sifatida tushuniladi.

Tor ma’noda karaganda esa, “hukumat” bu - ijro etuvchi hokimiyatdir. Yana bir ta’rifga ko‘ra “hukumat” - bu mamlakatda ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiruvchi, umumiy vakolatlarga ega bo‘lgan, davlatning kollegial organidir.

“Sud hokimiyati - Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan vakolatlarda doirasida inson va fuqarolar, davlat organlari, korxonalar, muassasa, tashkilotlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, huquqqa doir nizolarni hal qilish borasidagi faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari tizimidir”.

Aristotel “Siyosat” asarida har kandy davlat tuzumi o‘zida uch unurni - birinchisi, davlat ishlarini mukammal qiluvchi qonun chiqaruvchi, ikkinchisi magistraturalar, uchinchisi sud idoralari kamrab olganligini ta’kidlaydi.

Shuningdek, mazkur masala borasida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev o‘zining “Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo

etamiz” asarida «Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari» degan muhim tamoyilni amalga oshirishda biz avvalo ana shu ijtimoiy institutlarning kuch va imkoniyatlariga tayanamiz. Shu munosabat bilan xalq hokimiyatining eng muhim poydevori sifatida jamoatchilik nazorati institutini kuchaytirish bo‘yicha mamlakatimiz Konstitutsiyasining 32-moddasida, shuningdek, «Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to‘g‘risida», «Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida»gi qonunlar va boshqa hujjatlarda muhrlab qo‘yilgan talablarning ijrosini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratamiz degan fikrlarni bildirganligi bizning fikrimizni tasdig‘i sifatida ko‘rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. Xalqimizning yo‘li mustaqillik, ozodlik va tub islohotlar yo‘lidir. Xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashi sessiyasida so‘zlangan nutq 1996 yil 16 mart. Bunyodkorlik yo‘lidan. - Toshkent, O‘zbekiston, 1996. Tom 4. - B. 134.

2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2016, 11-bet.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-sentabrda “O‘zbekiston Respublikasida ma‘muriy islohotlar kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5185-sonli Farmoniga 1-ILOVA.

4. Hakimov R.R. Davlat hokimiyati tarmoqlari o‘rtasida muvozanatni ta‘minlashning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish. “Adabiyot uchqunlari” nashriyoti Tashkent 2016 y.

5. Chinniboev X. Mirzaeva G. Hokimiyat vakolatlarining taqsimlanishi. Hayot va qonun. 2003. № 6, B. 44.

6. И.Эргашев, Худайназаров.А.Ў. Ўзбекистон жамияти бошқарувида ёшлар фаоллигини оширишнинг маънавий омиллари. Ижтимоий тадқиқотлар журналі, 5 сон, 3 жилд. Тошкент - 2020. - б.79-86.

7. АУ Худайназаров. Роль реформ в повышении активности молодежи узбекистана в социально-политических процессах. Экономика и социум, 2021 4-2, 661-665.

8. Khudaynazarov.A.U. Factors for Increasing the Activity of Youth of Uzbekistan in the Field of Science and Education. Middle East Journal of Applied Science & Technology, Vol.5, Iss.1, Pages 33-37, January-March 2022.

9. Saparbaev B.A, Khudaynazarov A.U. The Role of Reading in Increasing the Activity of Youth in Socio-Political Processes. Middle European Scientific Bulletin, VOLUME 23 Apr, 2022. 222-226.

10. Ergashev Ibodulla, Abdullayev Barxayotjon Bo'riyevich, Xudaynazarov Azamatjon O'rinbayevich & Berdiyeva Muattar Ibodullayevna. Transformation of Youth and the System of Values. Mediterranean Journal of Basic and Applied Sciences (MJBAS) Volume 6, Issue 4, Pages 24-32, October-December 2022.